



TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATINI ISHLAB CHIQUISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Shermuxeamedov Bexzodjon Usmonovich
"Iqtisodiy xavfsizlik" kafedrası PhD, dotsenti
Toshkent moliya institute
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: diplomat_701@mail.ru
ORCID: [0000-0003-3580-8627](https://orcid.org/0000-0003-3580-8627)

IMPROVING DEPOSIT POLICY OF COMMERCIAL BANKS

Shermukhamedov Bekhzodjon Usmonovich
PhD, Associate Professor of the "Economic Security"
Department Tashkent financial institute
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: diplomat_701@mail.ru
ORCID: [0000-0003-3580-8627](https://orcid.org/0000-0003-3580-8627)

JEL Classification: E5, E58

Annotatsiya: Maqolada, tijorat banklari depozit siyosati umumiy bank siyosatining asosiy bir qismi hisoblanib, tijorat banklarining depozit faoliyatini amalga oshirish strategiyasi va taktikasini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar siyosati doirasida amalga oshirilayotgan makroprudensial nazorat bo'yicha talablarning kuchaytirilishi milliy valyutadagi uzoq muddatli likvid resurslarning yetishmasligi hamda banklarning likvidlik bo'yicha tegishli ko'rsatkichlarga erishish zaruratining yuzaga kelishi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, hukumatimiz tomonidan tijorat banklarining depozit siyosatini, moliyaviy barqarorligini rivojlantirish, takomillashtirish bo'yicha bir qator oqilona siyosatlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, tijorat banklarining depozit bazasi mustahkamligiga ta'sir etuvchi omillarning mavjudligi, tijorat banklari depozit bazasining yetarlilik darajasi, jamg'arma va muddatli depozitlarga

nisbatan o'rnatilgan foiz stavkalarining beqarorligi va foiz stavkalarining daromadlilik darajasiga ta'sirini o'rganish mumkin.

Abstract: In the article, the deposit policy of commercial banks is considered to be the main part of the general banking policy and defines the strategy and tactics of deposit activities of commercial banks.

The strengthening of the requirements for macroprudential control implemented within the framework of the monetary policy of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan causes problems such as the lack of long-term liquid resources in the national currency and the need for banks to achieve appropriate liquidity indicators. Therefore, our government is implementing a number of reasonable policies to develop and improve the deposit policy and financial stability of commercial banks. In addition, it is possible to study the availability of factors affecting the stability of the deposit base of commercial banks, the level of adequacy of the deposit base of

commercial banks, the instability of interest rates set in relation to savings and term deposits, and the effect of interest rates on the level of profitability.

Kalit soʻzlar: depozit, depozit turlari, bank depoziti, depozit baza yetarliligi, talab qilib olinguncha depozit, muddatli depozit.

Key words: deposit, deposit types, demand deposit, term deposit, savings deposit, transactional.

Kirish. Bugungi kunda jahon amaliyotida banklarning depozit siyosatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari va ularning meʼyorlariga boʻlgan talablarni Xalqaro valyuta jamgʻarmasi (XVJ), Jahon banki (JB) va dunyoning rivojlangan mamlakatlari Markaziy banklari, yirik tijorat banklari, Bazal qoʻmitasi kabi moliyaviy muassasalar tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. Ularda banklarning moliyaviy resurslari manbalari, moliya bozori instrumentlari, iqtisodiy normativlarni optimallashtirish, ular bilan bogʻliq risklarni kamaytirish masalalari atroficha bayon etilgan. Xususan, tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlarini yanada oshirish, shuningdek, banklarning xalqaro kapital bozorlariga chiqishi hisobiga bank tizimiga qoʻshimcha resurslarni jalb qilish asosiy vazifasi hisoblanadi. Bularning barchasi tijorat banklarni uzoq muddatli mablagʻlarini jalb qilishini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarini olib borishini talab etadi. Hozirgi kunda jahon iqtisodiyoti rivojlanish darajasini banklar faoliyatisiz tasavvur qilish qiyin. Hozirga qadar yuksak rivojlangan iqtisodiy darajalarga erishgan koʻplab mamlakatlarning ushbu koʻrsatkichlarga erishishlariga banklar va ularning samarali faoliyatlari asosiy sabablardan biri boʻlib xizmat qiladi.

Umuman olganda banklar toʻgʻrisida fikr yuritir ekanmiz bu borada ularning asosiy resurs manbai boʻlmish bank depozitlari ularning samarali faoliyat yuritishida asosiy omillardan biri boʻlib hisoblanadi. Banklarning depozit siyosati tijorat banklarining muhim faoliyat yoʻnalishlaridan biri hisoblanib, undan samarali foydalanish banklar moliyaviy barqarorligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Bu oʻz navbatida tijorat banklarining depozit portfelini doimiy tahlil qilib, sifatini oshirib borishni taqozo qiladi.

Pandemiya sharoitida tijorat banklariga depozit quyilmalari kamayib ketadi va buning natijasida tijorat banklari likvidlik darajasiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Tijorat banklari tomonidan taklif etilgan online depozit xizmatlari natijasida aholining boʻsh turgan mablagʻlari jalb qilinadi.

Markaziy bank tomonidan zaxiralash normasini pasaytirish tijorat banklari tomonidan olingan majburiyatlarini yengillashtirishga olib kelgan boʻlar edi.

Material va metod. Tijorat banklarining barqaror va ishonchli faoliyatini taʼminlashda ilmiy asoslangan bank siyosati, jumladan mazkur siyosatning tarkibiy qismi hisoblanuvchi depozit siyosatini ishlab chiqish va amaliy faoliyatda qoʻllash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu maʼlum jihatdan bank resurslarining asosiy qismi depozit operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida shakllanishi bilan izohlanadi. Shu bilan bir qatorda, depozit operatsiyalarini tashkil etish samaradorligi darajasi kredit tashkiloti faoliyatining moliyaviy barqarorligi va rentabelligini taʼminlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Xalqaro bank amaliyotiga muvofiq,

bank tizimi barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadigan tijorat banklari depozitlarining nazariy va amaliy ahamiyatini o'rganish bank faoliyati barqarorligining o'ta muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar bank amaliyoti tajribasidan ma'lumki, depozitlar bank majburiyatlarining asosiy qismini tashkil etib, ularning barqarorlik darajasi bankning daromadligini va likvidligini ta'minlash hamda mustahkamlash imkonini beradi.

Depozit operatsiyalari passiv bank operatsiyalari hisoblanib, banklar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. Chunki, mazkur operatsiyalar bank resurslarini shakllanishida va bank aktivlarining optimal tarkibini aniqlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining depozitlari, bank depozit bazasi mustahkamligi zamonaviy bank tizimida juda ham ko'p qo'llanilayotgan tushunchalardan biri hisoblanadi. Aynan mazkur tushunchalar xususida iqtisodchi olimlarning o'z qarashlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash; bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini

kreditlashni yanada kengaytirish bilan bog'liq qator chora-tadbirlarning belgilanganligi [1], shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha yetkazish belgilangan [2].

Xorijlik taniqli iqtisodchi olimlardan biri E.F.Jukovning fikricha, "depozit – bu mijoz tomonidan saqlash muddati va rasmiylashtirish shartlaridan qat'iy nazar bank tasarrufiga topshirilgan pul mablag'laridir" [3].

O'z navbatida, xorijlik iqtisodchi olimlardan M.M.Agarkov "depozitni aholi, korxonalar va tashkilotlar tomonidan bank va boshqa moliyaviy tashkilotlarga saqlash uchun topshirilgan mablag' yoki qimmatli qog'oz" deb hisoblaydi [4].

Undan tashqari, xorijlik iqtisodchi olim I.T.Balabanovning ilmiy ishlanmalarida "depozit – bu bank mijozlari tomonidan bankka vaqtincha foydalanish uchun topshirilgan mablag'laridir" [5].

I.f.d., professor Ye.I.Vorobeva "Qrim Respublikasidagi Rossiya milliy tijorat bankining depozit siyosati" nomli ilmiy maqolasida "depozit siyosati – bu depozitlar (omonatlar) portfelini shakllantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar majmuasi, ushbu tadbirlarni amalga oshirishning turli shakl va usullari, bozorning mazkur segmentidagi raqobat pozitsiyasini aniqlash hamda resurs bazasining barqarorligi va ishonchga sazovorligini ta'minlashdir" degan xulosaga kelgan. Mazkur xulosaga aytish mumkinki, asoslangan holda depozit siyosatining alohida xususiyatlari

quyidagilardan iborat:

depozit siyosati – maqsadlar, vazifalar, ustuvorliklar, imkoniyatlar va rivojlanish istiqbollaridan kelib chiqqan holda har bir tijorat banki tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladigan tadbirlar majmuasi ekanligi;

depozit siyosati depozitlarning maqsadli va yaxlit portfelini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu esa depozitlar turli xil shaklda bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi;

depozit siyosati asoslanadigan depozit operatsiyalarini amalga oshirishning turli shakl va har biri alohida olingan bankda turlicha bo'lishi mumkinligi;

depozit siyosati banklar, boshqa nobank kredit tashkilotlari, shuningdek, boshqa moliya institutlari o'rtasidagi mijozlar, birinchi navbatda, jismoniy shaxslar uchun raqobat sharoitida amalga oshirilishi;

depozit siyosati yakunda har bir tijorat bankining barqaror va ishonchli resurs bazasini shakllantirilishiga olib kelishi zarurligi[6].

Sh.Z.Abdullayeva o'z tadqiqotlarida depozit amaliyoti bilan bog'liq munosabatlarni tahlil qiladi va moliya-kredit yoki bank muassasasiga berilgan pul mablag'lari yoki qimmatli qog'ozlar emas, balki bank omonatlari bilan bir qatorda bojxona to'lovlari, yig'imlar, soliqlar va hokazolarni to'lash uchun kiritilgan badallar ham depozit sifatida talqin etadi[7]. A.A.Omonov esa, bank resurslarini boshqarishda strategik rejalashtirish jarayoniga alohida e'tibor qaratish lozimligini shuningdek, moliyaviy resurslarni jalb etish va joylashtirishda muddatlar bo'yicha muvozanatlashtirish maqsadga muvofiqligi ta'kidlaydi[8].

A.M.Rahimov bank va mijoz

o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan muayyan maqsadlarda bankka pul mablag'larini jalb qilish va ularni saqlash bilan bog'liq operatsiya sifatida ta'kidlaydi va tijorat banklarining iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larni yetarli darajada jalb etishi va ushbu mablag'larni samarali joylashtirishi muhim vazifalardan biri hisoblanishini qayd etadi[9].

Natijalar. Xorijlik iqtisodchi olimlar P.E.Pfeyfer, M.E.Xaskens va R.M.Konroular bank uchun mijozlarning daromadliligi darajasini ma'lum davr davomida mijozlarga ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromad va xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlashni taklif etishgan. Olimlarning fikricha, barcha mijozlar ham daromadli hisoblanmaydi. Ularning ma'lum qismi boshqalariga nisbatan ko'proq daromad keltiradi.

Ilmiy tadqiqot ishi oldiga qo'yilgan vazifalar nuqtai nazaridan mijozlarning daromadlilik darajasini hisoblash uslubiyati ma'lum ahamiyatga ega ekanligini e'tiborga olgan holda ushbu masalaga batafsilroq to'xtalib o'tamiz. Qayd etish zarurki, mijozlarning daromadlilik darajasini aniqlash bo'yicha bir qator usullar ishlab chiqilgan va ular banklar faoliyatida qo'llanilib kelinmoqda. Xususan, Customer profitability analysis (CPA) usulida alohida olingan mijozning daromadliligi (samaradorligi) darajasini baholash quyidagi olti bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich. Mijozga nisbatan sof investitsiyalagan fondlarning o'zgarishi va tahlili: mijoz tomonidan bankka taqdim etilgan resurslar va bank tomonidan ushbu mijozga ajratilgan kredit resurslari hajmi aniqlanadi. Shu asosda sof investitsion pozitsiya baholanadi;

2-bosqich. Mijozdan olingan daromadlar oqimining o'zgarishi va tahlili: mijozdan olingan daromadlar oqimi va mijozning vaqtinchalik bo'sh mablag'larini bank tomonidan joylashtirilishidan olingan daromad aniqlanadi;

3-bosqich. Mijozga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarning o'zgarishi va tahlili: mijozga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bevosita xarajatlar va ushbu mijozni resurslar bilan ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar aniqlanadi. Shu asosda mijozga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bevosita xarajatlar va ularning umumiy xarajatlardagi salmog'i baholanadi;

4-bosqich. Mijozga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bilvosita xarajatlarning o'zgarishi va tahlili: mijozga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bilvosita xarajatlar aniqlanadi va shu asosda ularning umumiy bilvosita xarajatlardagi salmog'i baholanadi;

5-bosqich. Mijozga xizmat ko'rsatish bo'yicha natijaviy moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash: mijozga xizmat ko'rsatishdan olingan sof foyda (zarar), mijozga xizmat ko'rsatish rentabelligi; xizmatlarni sotishning daromadliligi ko'rsatkichlari aniqlanadi;

6-bosqich. Bankning mijoz bilan o'zaro munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha xulosalarni chiqarish.

CPA uslubiyatida mijozga xizmat ko'rsatishdan olingan sof foyda (zarar) (NP) quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$NP = R - C - Q$$

Bunda:

R – mijozga xizmat ko'rsatishdan olingan bank daromadi;

C – bankning mijozga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bevosita xarajatlari;

Q – bankning mijozga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bilvosita xarajatlari.

Mijozga xizmat ko'rsatishning sof rentabelligi (CP) quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$CP = \frac{NP}{(C + Q)} * 100\%$$

Xizmatlar sotishning daromadliligi (TP) ko'rsatkichini hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$TP = \frac{NP}{R} * 100\%$$

CPA uslubiyatining ijobiy xususiyatlari jumlasiga mijozning daromadlilik darajasini kompleks baholash imkoniyati yaratilishi hamda fikrimizcha, eng muhimi, mijoz mablag'laridan foydalanishdan olingan daromadni aniqlash mumkinligini kiritish mumkin. Uslubiyatning kamchiliklari sifatida mijozlarning daromadlilik darajasi amalga oshirilgan operatsiyalar asosida baholanishi, bu esa yaqin va uzoq istiqbolni prognozlash imkoniyatlarini cheklab qo'yishi mumkinligini qayd etish mumkin[10].

Tijorat banklari o'zlarining depozit siyosatini ishlab chiqishda tegishli tamoyillarga tayanadi, ular umumiy va xususiy tamoyillarga bo'linadi. Umumiy tan olingan tamoyillarga muvofiq Markaziy bankning pul-kredit siyosati, muayyan tijorat banki darajasida bir xil. Bu tamoyillarga quyidagilar kiradi: ilmiy asoslilik, optimallik va samaradorlik, depozit siyosatining elementlari birligi.

Tijorat bank depozit siyosatini shakllantirishning umumiy tamoyillari [11].

Bo'shatish tamoyil	Tamoyillar	Umumiy xususiyatlar
Depozit siyosatining umumiy tamoyillari	Muvofiqlik	Tegishli qonunchilik va normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi hududlar
	Ilmiy asoslilik	Depozit siyosati ilm-fanning eng so'nggi yutuqlari va ilg'or tajribaga, o'z ichidagi iqtisodiy qonunlarning ta'sirini hisobga olgan holda amalga oshiriladi dalillarga asoslangan metodologiyalardan foydalangan operatsiyalarini amalga oshirish.
	Tizim yaxlitligi	Depozit siyosati tijorat bankining umumiy siyosatining quyi tizimi vazifasini bajaradi. U faollik sohasidagi siyosatga nisbatan asosiy xususiyatga ega operatsiyalar.
	Yondashuvning murakkabligi	Depozit siyosatining nazariy asoslarini, ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish va depozitlarni joylashtirishdan olingan rentabellik natijalarini bankni rivojlantirish strategiyasi.
	Optimallik va samaradorlik	Bank rivojlanishining ushbu bosqichining samarali va optimal taktik yo'nalishlarini ishlab chiqish va usullari. jalb qilingan bank resurslarining maqsad va hajmlarini hamda ularni samarali amalga oshirishni belgilaydi.
Maxsus depozit siyosati	Elementlarning birligi	Depozit siyosatining barcha elementlari alohida emas, balki o'zaro chambarchas bog'liqlikda va ko'rib chiqiladi o'zaro bog'liqlik ifodalaydi.
	Optimal xarajat darajasi	Bankning narx siyosatini, bank rahbariyatining daromadlilikni tartibga solish va pasaytirish maqsadida depozitlarning bozor narxlarining o'zgarishiga adekvat munosabatda bo'lish qobiliyatini tavsiflaydi. Kutilgan xarajatlar. Foiz stavkalari bozor sharoitlariga yo'naltirilgan.
	Daromadlilik	Kelgan xarajatlarni qoplash va olish imkonini beruvchi shartlar asosida mablag'larni jalb qilish rejalashtirilgan foyda darajasi
	Likvidlik	Bankning likvidligini ta'minlash, shuningdek, munosabatlar va passiv va faol operatsiyalarning izchilligi.
	Xavfsizlik	Saqlash bo'yicha mijozlarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish tizimini tavsiflaydi ularning hisob varaqlaridagi bank sirini saqlash, shuningdek, bankning operativ likvidligini ta'minlash.
	Ishonchlilikni ta'minlash	Omonatni qaytarish va foizlarni to'lash bo'yicha mijozning tavakkalchilik darajasi bankning ishonchligiga bog'liq. To'plangan mablag'larning sifati va miqdori bankning barqarorligi va ishonchligini aks ettiradi

Depozit siyosatining o'ziga xos tamoyillari qatoriga bank faoliyatining xavfsizligini ta'minlash, xarajatlarning maqbul darajasini ta'minlash, ishonchligini ta'minlash tamoyillari kiradi. Ta'kidlash joizki, kreditlarning

standart turlari bilan bir qatorda maxsus kreditlar ham mavjud bo'lib, u har bir bankda depozit siyosatining moslashuvchanligidan dalolat beradi.

Ushbu tamoyillarga amal qilgan holda tijorat banklari depozit jarayonini

tashkil etishda strategik va taktik yo'nalishlarni shakllantiriladi va shu orqali depozit siyosatining samaradorligi ta'minlanadi. Umuman olganda, depozit siyosatini shakllantirish tamoyillarga rioya qilish bankka omonat

jarayonini tashkil etishda strategik va taktik yo'nalishlarni shakllantirish imkonini beradi va shu orqali uning depoziti samaradorligini va optimallashtirilishini ta'minlanadi.

2-jadval.

**Depozitning shakllanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar
tijorat banki siyosati [12]**

Omil nomi	Omilning ta'siri
	Ekzogen omillar kredit tashkiloti uchun mustaqil bo'lib, tijorat bankining ta'siriga tushmaydi va u uchun mablag'larni jalb qilish bo'yicha faoliyatning tashqi risklarini belgilaydi. Shu bilan birga, tijorat banki ushbu tashqi omillarni hisobga olgan holda, faoliyatning kiruvchi shartlarini hisobga olgan holda optimal depozit siyosatini ishlab chiqishi mumkin. Ushbu omillarni hisobga olishning muhim elementi — axborot xavfsizligi, sifati prognozlash va andarrayting, qabul qilingan risklar darajasi.
Inflyatsiya	Inflyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, shuncha ko'p kamroq mablag'larni tejashning konservativ shakllariga joylashtirish orqali tejashga moyillik rentabellik.
Markaziy bankning asosiy stavkasi	Bu foiz stavkasini belgilash uchun mezondir depozit va kredit mahsulotlari
Rezervatsion talabi	Turlari va valyutalari bo'yicha jalb qilingan resurslar miqdoriga ta'sir qiladi turli zaxira koeffitsiyenti, shuningdek, bo'sh kredit resurslari miqdori bilan bog'liq
Raqobat darajasi banklar	Depozit operatsiyalari uchun shakllangan shartlarga ta'sir qiladi, qo'shimcha xizmatlar
Soliq qonunchilik	Depozitlarning investitsion jozibadorligini shakllantiradi
Iqtisodiy bank faoliyati standartlari	Hisob — kitoblardagi depozit bazasi ko'rsatkichlarga ta'sir qiladi bank likvidlik koeffitsiyentlari (tezkor, qisqa muddatli va umumiy)
Depozitlarni kafolatlash tizimi	Omonat summasining shaxslarga va qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda qaytarilishini kafolatlash. Davlat va xususiy banklar o'rtasida raqobatni kuchaytiradi, saviyani shakllantiradi investor ishonchi
Moliyaviy sohaning holati va rivojlanish tendensiyalari bozor	Moliyaviy resurslarni jalb qilish va joylashtirishda imkoniyatlar va xavf darajasiga ta'sir qiladi. Kreditni belgilaydi bankning salohiyati va ayni paytda bank foydasi miqdori
Aholining daromad darajasi va tejashga moyilligi	Vaqtinchalik elektron va naqd pul mavjudligini, shuningdek, xavf-xatar darajasini aniqlaydi. Qoida tariqasida, daromadning past darajasida, bank depozitlariga moyillik qanday tejashning konservativ shakli ancha yuqori
Moliyaviy daraja savodxonlik	Bank va mijoz o'rtasidagi o'zaro hamkorlik imkoniyatlarini belgilaydi
Bank texnologiyalarini rivojlantirish	Global aloqaning paydo bo'lishi ,kompyuterlashtirish, masofaviy xizmatlarning rivojlanishi yo'q qilinadi bank mijozining hududiy majburiyligi
Foiz stavkasi darajasi	Depozit kafolatlarining bir xil darajasiga ega bo'lgan eng yuqori stavkalar yanada jozibador bo'ladi.
Bankni universallashtirish	Bank keng assortimentni taqdim etishga e'tibor qaratadi. (bank xizmatlari)

Kadrlar salohiyati	Zarur bo'lgan mutaxassislarning mavjudligi (kompetensiyalar)
<p>Yuridik shaxslarni kreditlash maqsadida aholi depozitlaridan faol foydalanish tavakkalchiligi quyidagilar bilan izohlanadi:</p> <p>Hozirgi kunda banklarning depozit bazasi barqarorligi va yetariliginii tavsiflovchi turli xil yondashuvlar mavjud bo'lsada, ularning ichida eng ko'p qo'llanilayotgan usullar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin. Birinchi metodika Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichning eng yuqori me'yoriy darajasi 30 foizni tashkil etishi tavsiya etiladi.</p>	<p>Ikkinchi metodika AQShning Federal zaxira tizimi, Depozitlarni sug'urtalash bo'yicha federal korporatsiya va Pul muomalasining Bosh nazoratchisi tomonidan ishlab chiqilgan «CAMELS» reyting tizimida o'z aksini topgan.</p> <p>Ushbu ko'rsatkichning eng past, ya'ni minimal me'yoriy darajasi 75 foiz qilib belgilangan.</p>

4-jadval

Tijorat banklari depozit bazasi barqarorligi va yetariliginii tavsiflovchi ko'rsatkichlar va me'yorlar [13]

No	Ko'rsatkichlar	Aniqlash usuli	Me'yoriy ko'rsatkich
1	Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki metodikasi	$TD / (TD + JD + MD) * 100$	mazkur ko'rsatkichning eng yuqori chegarasi 30 foizni tashkil etishi lozim
2	«CAMELS» reyting tizimi asosida baholash metodikasi	Barqaror depozitlar/jami depozitlar*100	mazkur ko'rsatkichning amaldagi darajasi 75 foizdan past bo'lmasligi lozim

O'z navbatida, barqaror depozitlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- talab qilib olinadigan depozitlarning barqaror qoldig'i;
- muddatli depozitlar;
- jamg'arma depozitlar.

Shuningdek, MDH mamlakatlari xususan, Rossiya Federatsiyasida tijorat banklari depozit bazasi mustahkamligini tavsiflovchi bir qator boshqa

ko'rsatkichlardan ham foydalanib kelinmoqda. Masalan:

- muddatli depozitlarning jami depozitlar tarkibidagi ulushi. Mazkur talabga ko'ra tijorat banklari depozitlari tarkibida muddatli depozitlarning ulushi 50 foizdan kam bo'lmasligi tavsiya etilgan;
- talab qilib olinguncha depozitlarning jami depozitlar tarkibidagi ulushi. Unga ko'ra talab qilib olinguncha depozitlarning jami depozitlardagi ulushi 30 foizdan oshib

ketmasligi belgilangan.

Munozara. Taraqqiy etgan mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikning yuqori darajada ta'minlanganligi banklar tomonidan depozitlar uchun to'lanayotgan foizlarni belgilashda asosan Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan samarali foydalaniladi. Yaponiya, AQSh va G'arbiy evropa davlatlarida banklarning depozitlari va kreditlari bo'yicha foizlarni belgilashda qayta moliyalashtirish stavkasidan foydalangan holda foiz stavkalariga sezilarli darajada ta'sir yuzaga keladi. Mamlakatimiz bank amaliyotida qayta moliyalashtirish stavkasi mamlakatdagi kutilayotgan inflyatsiya darajasiga qarab belgilanadi. Shunday ekan, inflyatsiya darajasi depozitlarning foizlarini belgilash uchun asosiy barometr vazifasini o'tashi lozim.

"Turonbank" ATB balansi 2014–2022 yillar davomida 32 439 115 mln.so'mga oshgan va 2022 yil 1 yanvar holatida yilga 11 009 621 mln.so'm bo'lgan. Balansning bunday tezkor ko'payish asosan mijozlarning depozit hisob varaqlarida mablag'lar qoldig'ining oshib borishi (2014–2022 yillar davomida 482770310 mln.so'mga),(1-jadval).

ATB "Turonbank" balans ko'rsatkichlari dinamikasi [14]
(mlrd. so'm va foizda)

<i>Ko'rsatkichlar</i>	<i>01.01.2015 yil</i>	<i>01.01.2016 yil</i>	<i>01.01.2017 yil</i>	<i>01.01.2018 yil</i>	<i>01.01.2019 yil</i>	<i>1.01.2020 yil</i>	<i>1.01.2021 yil</i>	<i>1.01.2022 yil</i>
<i>Bank balansi</i>	590 759	702 906	874 065	1 519 158	3 049 678	5 978 848	8 714 080	11 009 621
<i>Mijozlarning mablag'lari (depozitlar)</i>	474 639	565 666	710 139	903 851	1 199 429	1 953 582	2 086 189	2 837 762
<i>Chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari</i>	11 993	13 656	12 484	10 917	8 102	7 452	6 183	5248
<i>Olingan boshqa qarzlilar</i>	6 761	14 501	54 888	232 371	892 333	985 104	1 541 963	2 478 963
<i>Xususiy kapital</i>	61 831	77 158	85 123	322 948	822 985	1 090 585	1 210 159	1 915 190
<i>Berilgan kreditlar</i>	397 228	425 821	516 424	921 117	2 271 891	4 263 902	6 669 189	8 129 572
<i>Naqd aktivlar</i>	120 372	183 623	285 446	496 098	663 265	931 241	1 182 258	1 605 421
<i>Depozitlarning bank balansidagi salmog'i</i>	80,3	80,4	81,2	59,5	39,3	32,6	23,9	25,7
<i>Chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlarining bank balansidagi salmog'i</i>	2,1	1,9	1,4	0,7	0,3	0,12	0,07	0,04
<i>Olingan qarzlarning bank balansidagi salmog'i</i>	1,1	2,1	6,3	15,3	29,3	16,4	17,6	22,3
<i>Xususiy kapitalning bank balansidagi salmog'i</i>	10,5	10,9	9,7	21,2	26,9	18,2	13,8	17,2
<i>Depozitlarning kreditlarga nisbati</i>	119,5	132,8	137,8	98,1	52,8	45,8	31,2	34,9
<i>Qarz mablag'larining kreditlarga nisbati</i>	1,7	18,8	10,6	25,2	39,3	23,1	23,1	30,4
<i>Xususiy kapitalning kreditlarga nisbati</i>	15,6	18,1	16,5	35,1	36,2	25,5	18,1	23,5

Qarz mablag'larining xususiy kapitalga nisbati	10,9	18,8	64,5	71,9	108,4	90,32	127,4	129,4
--	------	------	------	------	-------	-------	-------	-------

Mijozlarning depozit hisob varaqlaridagi mablag'larning mutlaq (absolyut) miqdori oshib borishiga qaramasdan bank balansidagi depozitlar salmog'i 2017 va 2022 yillardan boshlab pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2014–2022 yillarda depozitlarning bank balansidagi salmog'i mos ravishda 80,3, 80,4, 81,2, 59,5 va , 39,3 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2021 yilda 23,9 foizni, 2022 yilda 25,7 foizni tashkil etgan. Tahlil davri davomida qarz mablag'larning salmog'i depozitlardan farqli ravishda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Olingan qarzlarning bank balansidagi salmog'i 2014 yildagi 1,1 foizdan 2022 yilda 22,3 foizgacha ko'tarilgan. Buning natijasida depozitlarning kredit quyilmalari qoldig'iga nisbati 2014 yildagi 119,5 foizdan 2022 yilda 34,9 foizgacha pasaygan. O'z navbatida qarz mablag'larining kredit quyilmalariga nisbati 2014 yildagi 1,7 foizdan 2022 yilga kelib, 30,4 foizgacha ko'tarilgan va qarz mablag'larining xususiy kapitalga nisbati 2022 yil 1 yanvar holatiga 129,4 foizga yetgan.

Depozitlar tarkibida muddatli depozitlar salmog'ining oshib borishi aholi va biznes sub'ektlarining bank tizimiga bo'lgan ishonchi darajasini bildiradi. Tijorat banklarida ochilgan muddatli depozitlar hajmining ko'payishi banklarning kreditlash imkoniyatlarini kengaytirgan holda moliyaviy barqarorlik holatiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Shu bilan bir qatorda depozitlar va kreditlar o'rtasidagi nisbatning oshib borishi tashqi ta'sir omillarini yengillashtiradi. Bu esa, o'z navbatida milliy iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda ijobiy ahamiyat kasb etadi [15].

Xulosa. Bankning depozit bazasini mustahkamligini ta'minlashning asosiy omillari sifatida jamg'arma va muddatli depozitlar hajmini ko'paytirish tavsiya etiladi. Bu depozitlarning o'ziga xosligi shundaki, ular bank uchun barqaror mablag' hisoblansada, biroq qimmat resurs hisoblanadi. Shu sababli banklar bunday mablag'larni maqbul stavkalarda jalb qilishlari kelgusida bankning daromadlilik darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy bank rezerv normasini kamaytirish muomaladagi pul massasini ko'payishiga olib keladi.

Tijorat banklari depozit siyosati tarkibiy elementlarining aniqlanishi, o'z navbatida, har bir elementning xatti-harakatini belgilab beruvchi tamoyillar majmuasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Depozit siyosatining strategiyani shakllantirishda qo'llanilgan tamoyillarga moslashtirishni talab qiladi. Bank faoliyatini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda qo'llaniladigan tamoyillar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bosh strategik hujjati hisoblanuvchi "Monetar siyosatning asosiy yo'nalishlari" asosida shakllantirilganligi hisobga olgan holda, depozit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoniga joriy etilishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, ular quyidagilardan iborat:

1. Depozit siyosatining aniq maqsadli yo'nalishlari. Mijozlar va boshqa kreditorlarda tijorat banklarining depozit siyosatiga ishonchni oshirish va uni samarali yuritish uchun ular bank depozit siyosatining bugungi kuni va istiqbollari to'g'risida aniq tasavvur va maqsadga ega bo'lishlari kerak.

2. Depozit siyosatini ishlab chiqish va

uni amalga oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilishdagi mustaqillik. Samarali va ta'sirchan (bank faoliyati barqarorligi nuqtai nazaridan bo'lgan) depozit siyosatini yuritish vazifasi sohaga oid qarorlar qabul qilishda tijorat bankining muayyan darajadagi mustaqilligi talab etiladi. Chunki depozit siyosat doirasida qabul qilingan qarorlar bankning moliyaviy ko'rsatkichlariga ma'lum vaqt kechikishlar bilan ta'sir etadi va darhol natija bermasligi mumkin. Shu nuqtai nazardan, depozit siyosati borasida bank puxta tahlillarga asoslangan qarorlar qabul qilishi va o'z qarorlarida sobit turishi muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Depozit siyosati doirasida makroiqtisodiy tahlil va prognozlash tizimi. Depozit siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi muayyan jihatdan depozit xizmatlari bozori holati va uning rivojlanish tendensiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarning aniqligi va ishonchlilik darajasiga bog'liq.

4. Depozit siyosatini amalga oshirishning samarali vositalari va mexanizmlari. Depozit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning strategik samaradorligini ta'minlashda mavjud vositalar va mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish hamda takomillashtirish, shuningdek, bozor tamoyillari asosida ishlovchi yangi vosita va mexanizmlarni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu depozit siyosatini ma'muriy usullar bilan emas, balki faqat bozor mexanizmlari orqali olib borish zarurligini anglatadi.

5. Depozit siyosatining kommunikatsion tizimi. Kommunikatsion siyosat o'z tarkibiga depozit siyosatiga aloqador moliyaviy va sifat ko'rsatkichlari to'liq to'plamini doimiy ravishda tarqatib turish, depozit siyosatining oraliq va operatsion maqsadlarini oshkor etib borish va mazkur sohada qabul qilinayotgan

qarorlar sabablarini tushuntirib berdi. Tijorat banki tomonidan depozit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish tartibi, shuningdek, uning maqsadi, vosita va instrumentlari to'g'risidagi ma'lumotlar depozit operatsiyalari bozori ishtirokchilari uchun ravshan va oson tushuniladigan tarzda yetkazib berishi kerak.

6. Bank siyosatlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va muvofiqlikni ta'minlash. Bank faoliyatini rivojlantirish strategiyasi doirasida ishlab chiqiladigan barcha siyosatlarning o'zaro aloqadorligini ta'minlash va ularni muvofiqlashtirish (koordinatsiya) samarali depozit siyosatini olib borishda yana bir muhim omili hisoblanadi.

7. Qarz qimmatli qog'ozlarini, jumladan, depozit sertifikatlarini chiqarish hajmlarini oshirish hamda subordinar qarzlarni jalb qilish orqali banklarni resurs bazasini mustahkamlash mumkin.

8. Aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini uzoq muddatli depozitlarga jalb qilish hamda innovatsion depozit dasturlarini ishlab chiqish;

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, tijorat banklari depozit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning nazariy-uslubiy asoslari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilganligiga qaramasdan, mazkur masala faoliyatni rivojlantirish strategiyasi nuqtai-nazaridan batafsil ko'rib chiqilmagan. Depozit siyosatiga strategiyani amalga oshirishning taktik vositasi sifatida yondashish, bu siyosatining tarkibiy elementlari, uni ishlab chiqish va amalga oshirish tamoyillarini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni taqozo etadi. Depozit siyosati tarkibiy elementlari va tamoyillarining qayta ko'rib chiqilishi va takomillashtirilishi bank faoliyatini rivojlantirish strategiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlovchi muhim

omilga transformatsiyalanishiga olib keladi. O'z navbatida har bir bank tomonidan belgilangan strategik maqsadlarga erishilishi mamlakatimiz bank-moliya tizimini mustahkamlash, iqtisodiyotni kreditlash ko'lamini

Tijorat banklarida depozit siyosati samaradorligini baholash uslubiyati masalalarini o'rganish asosida tijorat banklari resurs bazasida ichki va tashqi manbalardan jalb etilgan qarz mablag'lari salmog'ining oshib borishi hamda jismoniy va yuridik shaxslardan jalb etilgan depozitlar salmog'ining kamayib borishi mazkur jarayonning barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu holatni inobatga olgan holda, birinchidan tijorat banklari faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha talablarning kuchaytirilishi banklarni uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini topish bo'yicha tadbirlarni faollashtirishga imkoniyat beradi. Bunday tadbirlar o'z navbatida uzoq muddatli (1 yildan oshiq muddatli) omonatlar bo'yicha taklif etilayotgan foiz stavkalarining oshishiga olib keladi. Bir

kengaytirish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari spektorlarini ko'paytirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini beradi.

qator makroiqtisodiy omillar ta'siri doirasida tijorat banklarining depozit portfelining tarkibiy tuzilmasida xorijiy valyuta shakllantirilgan omonatlar hajmining to'xtovsiz oshib borishi, qayd etilgan omillar tijorat banklarining kredit siyosatining maqsadi va amalga oshirish vositalari takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qonun hujjatlariga muvofiq xavfsiz ish yuritishlari yuzasidan belgilangan barcha iqtisodiy me'yorlarga qat'iy rioya qilishi depozit siyosatini ishlab chiqish jarayonida bank mijozlariga taklif etayotgan depozit xizmatlari tarkibiga paketli, innovatsion xususiyatga ega bo'lgan depozitlarning mavjud emasligi, depozit siyosatining samaradorligiga salbiy ta'sir o'tkazadi deb hisoblaymiz.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF 4947-sonli Farmoni//lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2022.
3. Жуков, Е. Ф. (2012) Банковское дело : учебник для бакалавров / Е. Ф. Жуков. — Москва : Издательство Юрайт, — 591 с.
4. Агарков М.М.(2005) Основы банковского права. Авторский сборник. 336 с.
5. Балабанов И.Т. (2005) Основы финансового менеджмента: учеб. пособие / И.Т. Балабанов. - 3-е изд., перераб. и доп. - К.: Элга, Ника-Центр, - 656 с.
6. Воробева Е.И. (2018) Депозитная политика Российского Национального коммерческого банка (ПАО) в Республике Крым. Научный вестник: Финансы, банки, инвестиции - №1. 99-110 стр.
7. Абдуллаева Ш.З. "Банк иши". Иқтисод-молия. 2017 й. -312 б.
8. Омонов А.А. Тижорат банкларининг ресурсларини самарали бошқариш масалалари. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 35 б.
9. Раҳимов А.М. Тижорат банклари депозит базаси ва уни кенгайтириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертатсия автореферати, –Т.: "ИҚТИСОД-МОЛИЯ" нашриёти, 2019. 54 б.
10. P.E. Pfeifer, M.E. Haskins, R.M. Conroy. Customer lifetime value, customer profitability, and the treatment of acquisition spending. Journal of Managerial Issues. – 2004. – P. 1-25. <http://citeseerx.ist.psu.edu/viewdoc/>
11. Тетерина В.С. Теоретические аспекты формирования депозитной политики банка [Текст] / - 2016, с. 445-449.
12. Палатова Е.Ю. Тенденции развития депозитного рынка России [Текст] // Современные научные исследования и инноватсии. - 2017. - № 3 - С. 23-27.
13. Байсембаева Г.М.(2014) Стратегия развития депозитной политики банков второго уровня (на примере АО «Альянс-банк»). Монография. Издательство «КЕРЕКУ» Павлодарского государственного университета им. С.Торайгырова. 7-9 стр
14. "Turonbank" ATB moliyaviy hisobotlari asosida tayyorlandi. www.Turonbank.uz.
15. Shermuxamedov B.U Tijorat banklari faoliyatida depozit siyosatini ishlab chiqish va joriy etishning xalqaro amaliyoti. Иқтисодиёт ва таълим / 2021 йил 2-сон. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal>